

**TA'LIM MENEJMENTINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY G'OYALARI**

Sapayeva Aida Kadambay qizi

Otaboyeva Havvagul Ulug'bek qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti
Maktab menejmenti yo'nalishi 4-kurs talabalari

***Annotasiya:** Bugungi kunda zamon bilan hamnafas bo'lishni xohlaydigan har qanday o'qituvchi o'z darsida zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo'lish vaqti keldi. Hozirgi kunda chet tilini bilish muhim bo'lganligi bilan birga, jahon ta'lim tizimining ilg'or usullarini qo'llash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot va kommunikativ taraqqiyotning jadal rivojlanishi zamonamizning imkoniyatlaridan biri bo'lib, o'quv jarayoni va uni tashkil etishda o'qituvchining darsida ham bu imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.*

***Kalit so'zlar:** Texnologiya, ta'lim, zamonaviy metodlar, multimedia, texnik vositalar, maxsus dasturlar, chet tili manbalari, elektron adabiyotlar.*

Yangi axborot texnologiyalari ta'limni o'rgatishda katta imkoniyatlar yaratadi, fan bo'yicha sifatli bilim olish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bugungi kunda sifatli ta'lim uchun birinchi navbatda mukammal taqdimot zarur bo'ladi, elektron ko'rgazmalarsiz darsni tasavvur qilish mushkul. Taqdimot tayyorlashda esa avvalo bilim, soddalik, tushunarlilik, kreativlik hamda keng qamrovli axborot bizga kerak bo'ladi. Zamonaviy o'qituvchining eng o'tkir quroli esa aynan axborotlarni nafaqat o'zbek balki chet tili adabiyotlaridan o'qib tushuna olish qobiliyatidir. Bugungi kunda keng axborot resurslari xorijiy tillarda, xususan, xalqaro biznes tili bo'lgan ingliz tilida. Tarmoqdagi ma'lumotlarni qidirishda asosiy aloqa vositalari (elektron

pochta, chat) bilan ishlashga o'rgatishga katta e'tibor beriladi. Ma'lumotlar almashinuvi nafaqat yozma matn bilan cheklanadi, balki asta-sekin grafik va audio hujjatlar qo'shiladi, ya'ni ma'lumotlar chet ellik hamkasblar bilan online aloqa orqali metodlar almashish bilan ham dars jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Pedagogik jarayonda o'zining yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini doimo rivojlantiradigan va takomillashtiradigan o'qituvchi iqtidorli hisoblanadi. Pedagogik ijodiyot-o'z mohiyatiga ko'ra odamning yangi bilimlarni hosil qilish va takomillashtirish bo'yicha ijodiy ishining kasbiy, maxsus ifodasidir. Pedagogik izlanish o'qitishda doimo ma'lum yo'nalishdagi subyektga nisbatan aniqlashtirilgan bo'ladi. Pedagogik izlanish natijasida yangilikning asosiy namoyon bo'lish shakllari kundalik o'quv-tarbiyaviy muammolarning nostandart yechimlari, pedagogik ta'sir usullarining metodik va nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilishi, ixtiro etilishi va takomillashuvi hamda ulardan samarali foydalanishda ko'rinadi. Yangi ta'lim tizimi mazmuniga o'tmishning qimmatbaho ma'naviy qadriyatlarini kiritish va unutilayotgan yoki taqiqlangan ba'zi birlarini qayta tiklashdan maqsad o'tmish oldida egilish emas, balki unga tayanib, ijodiy foydalangan holda rivojlanishning yangi pog'onasiga chiqish demakdir.

Ta'lim jarayonida turli xil metodlardan foydalangan holda, o'quvchilarni talabalarni qiziqishini oshirishga faolligini ta'minlashda yordam beradi. Quyida ba'zi samarali metodlarni ko'rib chiqamiz.

Labirint. Texnologiyaning maqsadi o'quvchilarning o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlarda o'z obrolarini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimni topish ko'nikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko'maklashish, ularni fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o'stirish muloqot qilish qobiliyatini oshirish ko'zda tutiladi. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi keys study ha o'xshab ketadi undan biroz farq qiladi. Bunda o'quvchilar doira shaklida o'tirib oladilar. O'qituvchi biror bir vaziyatni aytadi va shu vaziyatda qilinishi mumkin bo'lgan 3 ta variant aytadi. O'quvchilar esa 3 ta variantdan birini tanlaydilar, kim qaysi variantni tanlaganidan kelib chiqib ular 3 ta guruhga ajraladilar. Uchchala guruh

o'zlari tanlagan variantni togriligini isbotlaydilar nima uchun o'zlari tanlagan yolni togr deb hisoblashlarini tahlil qilib beradilar. Shu tariqa ozini variantini oqlab bergan guruh golib boladi .Ushbu texnologiyani o'quv jarayonida tashkil etiladigan dars (amaliy yoki labaratoriya) mashg'ulotlarida ham qo'llash mumkin. Masalan,o'quv predmeti bo'yicha o'zlashtirilgan mavzular yoki bo'limlardan o'quvchi hayotiy faoliyatlarida uchraydigan muammoli vaziyatlar shuningdek, darsda o'tilayotgan mavzular ichidagi muammolarning yechimini topish bo'yicha fikrlarni aniqlashda ushbu texnologiyaning qo'llanishi o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni yanada chuqurroq mustahkamlashlariga ularni amaliyotda ko'llashlarida yechimini to'g'ri topishlarida yordam beradi.

Interfaol ta'lim bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilish imkonini beradi. Eng muhimi, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'quvchilar o'rtasida emotsional aloqa o'rnatishga yordam beradi, ularni jamoada ishlashga, tengdoshlarining fikrini tinglashga o'rgatadi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, darsda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning asabiy tarangligini bartaraf qiladi, faoliyat shaklini o'zgartirishga, darsning asosiy masalalariga e'tiborni qaratishga imkon beradi.O'quv jarayonining asosiy maqsadi ilm-fanning barcha yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali, puxta bilimli mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shu bois zamonaviy ta'lim tashkil etishni o'rganishda zamonaviy AKTdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yuqorida aytilganidek, chet tili darsliklarida zamonaviy o'quv qurollari,lingafon, multimedia, maxsus dasturlarlashtirilgan mavzular, ko'p tilli elektron lug'atlardan bevosita foydalanish maqsadlidir. O'qishda masofaviy ta'lim usullari,matbuot, telekommunikatsiya va internet materiallaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishi, balki ularning intellektual saviyasini oshirishda ham axborot manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Samarali yondashuvlar qatorida masofaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta'limni tashkil etishni pedagogik g'oya sifatida ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov. R.J - Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish. - T.: TDPU .2009.
2. Hayitov. A, Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi.2006
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.2000-y.